

*Fidoyilik –*
*Vatanga xizmat demak!*

# Zarafshon

www.zarnews.uz
https://www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz
https://twitter.com/zarnews_uz

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

zarafshonbot

Сайтимизга ўтиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг

2021-yil 20-may, payshanba, 59 (23.495)-son


**Кун ҳикмати**

Бировдан камчилик қидиришга ўрганиб қолиш разолат белгисидир

# Кун тартибида қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат хавфсизлиги масаласи

**19 май куни халқ депутатлари вилоят Кенгашининг ўттиз биринчи сессияси ўтказилди. Сессияни Кенгаш котибияти мудири Ш.Йўлдошев бошқарди.**
**Депутатлар сессия кун ва иш тартибини, котибни тасдиқладилар.**

Бу галги сессия кун тартибига асосан, қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ислоҳотларнинг натижаларини таҳлил этиш ва келгусидаги вазифаларни белгилаб олиш билан боғлиқ масалалар киритилган эди.

Дастлаб вилоят ҳокимининг қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосари Ф.Абиловнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш, озиқ-овқат маҳсулотлари нархлари сунъий ўсишининг олдини олиш бўйича амалга оширилаётган ишлари тўғрисидаги ҳисоботи эшитилди.

Ҳисботда қайд этилишича, ўтган йил вилоятимизда жами 4 миллион 479 минг тонна қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштирилиб, қиш-баҳор мавсуми учун жами 80,2 минг тонна маҳсулот захирага жамғарилди. Шунингдек, мингдан ортиқ тайёрлов корхонаси томонидан 40,2 минг тонна картошка, 19 минг тонна пиёз, 13,8 минг тонна сабзи ва 7,2 минг тонна гуруч захира қилинди. Жойларда арзонлаштирилган ярмаркалар ташкил этилди. Бунинг натижасида бозорда қишлоқ хўжалик маҳсулотлари нархи барқарорлиги таъминланди.

Аммо ўсимлик ёғининг нархи 50 фоизгача, шакар 15 фоизга, тухум эса 29 фоиз ўсиши кузатилди. Мазкур маҳсулотлар учун зарур бўлган хом-ашёларнинг нархи ошганлиги ҳамда импорти кескин камайганлиги ҳисобига уларнинг нархи кўтарилишига сабаб бўлмоқда. Шу сабабли бу йил вилоятимизда 6 минг гектар ерда соя, 5,1 минг гектар кунгабоқар ва 4,1 минг гектар кунжут экилди.

– Вилоятда 2021 йилда умумий қиймати 4,7 триллион сўмлик 2869 та озиқ-овқат лойиҳалари амалга оширилади, – деди Ф.Абилов. – Сабзавот, полиз, мойли ва дуккакли экинлари уруғларини етиштириш саноат усулида ташкил этилиб, юқори авлодли уруғлик етиштириш йўлга қўйилади. Жомбой, Булунғур, Тойлоқ ва Самарқанд туманларида элита уруғчилик хўжаликлари ташкил этилади. Каттақўрғон, Пайариқ, Нуробод ва Қўшработ туманларида 150 гектар майдонда 15 та уруғчилик фермер хўжаликларида полиз уруғчилиги йўлга қўйилади. Озиқ-овқат саноатини ривожлантириш бўйича жорий йилда қиймати 1 231 миллиард сўмлик инвестициялар эвазига қуввати 658 минг тонна бўлган 108 та озиқ-овқат саноат лойиҳалари амалга оширилади. Вилоятда 631,4 минг аҳоли хонадонлари ва деҳқон хўжаликларидаги 70 минг гектар ерда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирилади.

Депутатлар гўшт нархи ошиб кетишининг олдини олиш, сув тақчиллиги кузатилаётган бугунги шароитда қишлоқ хўжалигида сув тежамкор технологияларни кенг қўллаш, томорқа имкониятларидан самарали фойдаланиш юзасидан ўз таклиф ва тавсияларини билдирдилар.

Шундан сўнг вилоят қишлоқ хўжалиги бошқармаси бошлиғи З.Эргашев Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясида белгиланган вазифаларни 2020 йилда амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар дастурининг ижро этилиши ҳолати тўғрисида ҳисобот берди.

З.Эргашевнинг маълум қилишича, стратегиядаги устувор йўналишларга мувофиқ вилоятда 2021 йил давомида 12 та йўналишда 4,7 триллион сўмлик 2869 та янги лойиҳа ишга туширилади. Бунинг натижасида йил якуни билан фермер хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги корхоналарида 242 минг тонна мева, 389 минг тонна узум, 682 минг тонна сабзавот, 377 минг тонна картошка, 101 минг тонна полиз маҳсулотлари етиштирилади.

Бугунги кунда вилоятда 43 та кластерлар мавжуд бўлиб, уларга 151 минг 900 гектар ер майдони бириктирилган. 2022 йилда ғалла майдонлари қисқартирилган туманларнинг ер майдони тўлиқ кластерларга берилади ва мева-сабзавотчиликка ихтисослашган 5 та янги кластер ташкил этилиб, уларнинг сони 18 тага етказилади.

Депутатлар вилоят фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши раиси А.Норқўзиевнинг вилоятда 2021 йилда кўп тармоқли фермер хўжаликларини ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини такомиллаштириш, белгиланган лойиҳаларнинг амалга оширилишини таъминлаш борасида олиб борилган ишлар тўғрисидаги ҳисоботини эшитиб, мазкур йўналишда ҳам ўз таклиф ва мулоҳазаларини билдирди.

Сессияда географик объектларни номлаш ва қайта номлаш масалалари бўйича вилоят комиссияси ҳамда бошқа ташкилотларнинг Нуробод ва Нарпай туманларидаги 17 аҳоли пунктини номлаш тўғрисидаги таклиф ва хулосалари маъқулланди.

Сессияда Кенгаш ваколатига тегишли бошқа масалалар ҳам кўриб чиқилиб, қарорлар қабул қилинди.

**Вилоят ҳокими Э.Турдимовнинг аҳоли муаммоларини ўрганиш ва уларни бартараф этишга қаратилган навбатдаги сайёр қабули Самарқанд шаҳридаги Ёшлик истироҳат боғида ўтказилди. Унда вилоятнинг 4 сектор раҳбари, ҳоким ўринбосарлари, бошқармалар бошлиқлари, шунингдек, Самарқанд шаҳри ва унга яқин туманлар ҳокимлари ҳамда мутасадди ташкилотлар масъуллари иштирок этди.**





# ШАҲАРДАГИ САЙЁР ҚАБУЛГА

## олис қишлоқлардан ҳам мурожаатчилар келди



Сайёр қабулга келган ҳар бир фуқаронинг мурожаати диққат билан тингланиб, масалаларга ечим топилди.

- Қабулда ўзим яшайдиган кўп қаватли уйда истиқомат қилувчи ногиронларга моддий ёрдам ва онам учун эшитиш мосламаси сўраб мурожаат қилдим, - дейди Самарқанд шаҳридаги Ҳунармандлар маҳалласида яшовчи Мадина Сувонова. - Масалани ҳал этиш шаҳар 3-сектор раҳбари Жамшид Қодировга юклатилди. У эртага биз яшайдиган ҳудудга бориб, мурожаатимни батафсил ўрганиб, муаммоларимизга ечим топиш чорасини кўришини айтди.

Шаҳар аҳолиси учун ўтказилган қабулга олис қишлоқлардан ҳам фуқаролар келиб, мурожаат қилди.

- Бугунги сайёр қабулни эшитиб, 100 километр йўл босиб келдим, - дейди Қўшработ туманидан келган фуқаро Феруза Назарқулова. – Узоқ вақтдан бери бир гуруҳ ҳамкасбларимни ва ўзимни қийнаб келаётган муаммо жонимдан ўтиб кетмаганда келмасдим. Яъни, ташкилотимиз – туман ободонлаштириш бошқармаси томонидан ойлик маош тўланишида тушунмовчиликлар бўляпти. Имтиёзли кредит асосида уй сотиб олганман. Олаётган ойлигим камлигидан кредитни қайтаришга қийналяпман. Маошимиз турлича. Масалан, яқинда пластик картамга 650 минг сўм тушди. Ташкилот томонидан қўшимча моддий рағбатлантиришлар йўқ. Шу масалага ойдинлик киритиш учун мутахассислар ёрдамига муҳтожмиз. Туманимизда ушбу муаммога ечим топишга қийналганимиз учун бугун вилоят ҳокимига мурожаат қилдим. У киши мутасаддиларга топшириқ берди.

Бу галги сайёр қабул аввалгиларига ўхшамади. Вилоят ҳокимлиги мутасаддилари томонидан карантин қоидаларига амал қилиб, ушбу тадбирни ўтказиш мақсадида катта тайёргарлик кўрилди. Истироҳат боғининг соя-салқин жойларида шароит яратилганлигига қарамасдан, навбатсиз қабулга киришга уринган айрим "уддабурон" фуқароларнинг тартибсиз ҳаракати кўпчиликнинг кўнглини хира қилди.

Яна бир ҳолат, баъзи фуқаролар шаҳар ёки туманда, ҳатто маҳалланинг ўзида ҳал этилиши мумкин бўлган арзимаган муаммолар билан ҳам вилоят ҳокимига мурожаат қилмоқда. Бу каби тушунмовчилик ва сарсонгарчиликларнинг олдини олиш учун ҳар бир сайёр қабулда таъкидланадигандек, аввало, одамларнинг ҳуқуқий билимини ошириш, шунингдек, қуйи бўғин мутасаддиларининг масъулиятини кучайтириш талаб этилади.

**Тўлқин СИДДИҚОВ,**
**Бахтиёр МУСТАНОВ (фото).**

**«««« Мулоҳаза учун мавзу »»»»**

**Саришта деган сўзни одатда тор доирада тушунамиз. Яъни, тоза, озода деган маънода. Бироқ сариштлик сўзининг қамрови кенг.**
**Оддий мисол: инсонда ҳамма нарса саришта бўлиши керак, деймиз. Бу давраларда айтиб, қарсак эшитиш учун тўқиб чиқарилган шиор эмас. Унга ҳар биримиз амал қилсаккина самарасини кўрамиз, жумладан, ҳовли-жойимизнинг сариштлиги бизнинг ким эканлигимизни яққол кўрсатиб беради.**

# Ҳовли жойингиз атрофи сариштами?

Эътибор берганмисиз, шаҳар-у қишлоқларда шундай ҳовлилар борки, ташқаридан қарасангиз, чиройли қилиб қўйилган: таъмирланган, бўялган, атрофига гуллар экилган, дарахтлар буталган, йўлаклар супурилган. Ҳавас қиласиз. Аммо ҳовли ичига кирсангиз, тамоман бунга тескари ҳолатга гувоҳ бўласиз. "Хонадон эгалари ташқи тарафни хўжакўрсинга обод қилиб қўйган экан-да", дейсиз беихтиёр.

Баъзан бунинг тескарисига ҳам дуч келасиз. Ички ҳовлига эътибор қаратилган - ҳаммаёқ саранжом-саришта, аммо ташқи деворга, кўча атрофига қараб бўлмайди.

- Маҳалламиз Жума шаҳрининг марказида жойлашган, - дейди Паст Дарғом туманидаги Самарқанд маҳалласи раиси Холиддин Мелиев. – Шунинг учун хонадонларнинг ҳолати ҳамиша эътиборимиз марказида бўлади. Рости, айрим кишиларга баъзи нарсаларни айтиб турмасангиз, қилмайди. Феълимиз шунақароқ. Лекин ҳовли-жойни қандай тутиш маданиятлиликнинг бир кўриниши эканлиги бор гап. Демоқчиманки, шундай хонадон соҳиблари борки, уй атрофи, кўчасини тоза-озода сақлайди, кўриб баҳри-дилингиз очилади. Ўша одамнинг ўзини кўрсангиз иши юришганидан, суҳбатлашсангиз маъноли гапларидан завқланасиз. Бунинг акси бўлган одамлар эса ҳаётдан, иши юришмаётганидан нолигани-нолиган. Чунки қаерда поклик, сариштлик бўлса, ўша ерда барака бўлади.

Яна бир гап. Ҳозир айрим ички кўчаларда кишилар йўлга бетондан бир қаричлик деворча қилиб қўядиган бўлган. Бунинг сабаби тушунарли: машиналар тез ўтмасин, болалар кўчада ўйнаб юради, бирор кор-ҳол бўлмасин, дейишади. Лекин тасаввур қилинг: кунига неча автомобиль тезлигини пастлатиб, вақтини, ёнилғисини ортиқча сарфлаб, бу дўнгликдан ўтади. Бироз тез келган ҳайдовчилар автоуловига жиддий шикаст етказаётган ҳолатлар ҳам кузатилади. Айтинг-чи, бу одамларга озор бериш эмасми?

Ёки айримлар ҳовли ва кўча ўртасидан ўтган ариқни кўмиб, йўл ўтказгич қуриб олса, айримлар қурилиш чиқиндилари билан тўлдириб ташлайди. Оқибатда ёғингарчилик пайтлари кимнингдир ҳовлиси ёки кўчани сув босади. Қани бу ерда сариштлик?

Хуллас, ҳовли-жойи, кўчасини саришта қилган инсон шу иши, фазилати билан кўп нарса ютади: фарзандларига-да яхши тарбия беради, ён-атрофга, жамиятга фойдаси тегади. "Катта сарф-харажатлар билан обод қишлоқ, обод маҳалла, обод шаҳар қилсаг-у ўзимиз сариштликка амал қилмасак, ободликка эриша оламизми?". Қани, ўзингизга шу саволни бериб кўринг-а?!

**Акрам ҲАЙДАРОВ.**

# Президент мактабларига қабул қай тартибда ўтказилади?

**– 2021-2022 ўқув йилида республика бўйича жами 1632 нафар, шу жумладан, Тошкент шаҳри, Қорақалпоғистон Республикаси, Наманган ва Хоразм вилоятларидаги Президент мактабларида 5-синф ва 6-синф учун 24 нафардан жами 192 нафар, янгидан ташкил қилинаётган Андижон, Бухоро, Қашқадарё, Сурхондарё, Сирдарё, Жиззах, Навоий, Фарғона, Тошкент, Самарқанд вилоятларидаги Президент мактабларига 5-синфдан 10-синфгача, ҳар бир синфда 24 нафардан жами 1440 нафар ўқувчи қабул қилиниши режалаштирилган. Жумладан, Самарқанд вилоятида 5-10-синфлар учун 144 нафар ўқувчи қабул қилинади.**



**– Имтиҳон қайси тилда бўлади?**

- Президент мактабларида кириш имтиҳонлари талабгорларнинг хоҳишига кўра ўзбек, инглиз ёки қорақалпоқ тилида бўлади.

**– Президент мактабларида ўқувчилар бошқа мактаблардаги каби давлат таълим стандарти асосида ўқитиладими?**

- Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 июндаги 526-сон қарори билан тасдиқланган Президент мактаблари тўғрисидаги низомга мувофиқ, Президент мактабларида таълим жараёни умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари ҳисобга олинган ҳолда, Кембридж университетининг Cambridge Assessment ташкилоти билан ҳамкорликда ишлаб чиқилган ҳамда Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлиги томонидан тасдиқланадиган ўқув режалари ва дастурларига мувофиқ амалга оширилади

**– Ўқувчиларининг барчаси ётоқхона билан таъминланадими?**

- Албатта, Президент мактабларида ўқувчиларнинг барчаси ётоқхона билан таъминланади, ўқувчилар ҳафтанинг душанба-жума кунлари мактаб ҳудудида қолиб таълим олишади.

**– Қандай ҳужжатлар талаб этилади?**

- Президент мактабларига кириш учун талаб этиладиган ҳужжатлар қуйидагилар:
- туғилганлик тўғрисида гувоҳнома нусхаси;
- белгиланган шаклдаги маълумотнома (талабгор ўқиётган мактаб директори томонидан тасдиқланган нусхаси);
- 3х4 ўлчамдаги расм (охирги 2 ой давомида туширилган);
- баҳолар табелининг нусхаси (2020-2021 ўқув йили натижасига кўра, мактаб директори томонидан тасдиқланган);
- Талабгор ҳамда унинг ота-онаси ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар фуқаролик паспорти маълумотлари (телефон рақами, электрон почта манзили).

*2-саҳифа »»*

# Уй-жойларни бошқаришда ЯНГИЧА ТИЗИМ

## Кўп қаватли уйларда яшовчилар бу хизматдан РОЗИ БЎЛАДИМИ?

**Президентимиз жорий йилнинг 26 апрель куни мамлакатимизда кўп квартирали уйларни бошқариш тизимини такомиллаштиришга оид ўтказилган тақдимотда, кўп қаватли уйларда яшовчи одамларни қийнаб келаётган қатор муаммоларга яна бир бор эътибор қаратиб, хизмат кўрсатиш тизимини яхшилаш бўйича мутасаддилар олдига вазифа қўйди. Давлатимиз раҳбарининг тавсияси билан кўп қаватли уй-жойларни бошқаришни хусусий бошқарув компанияларга бериш, давлат-шерикчилиги асосида бошқариш усулларига ўтишга қарор қилинди.**



Бугунги кунда вилоятимиздаги 2067 та кўп қаватли уйларда 66 минг 894 та хонадон бор. Бу уйларнинг 1912 тасига ширкатлар, 47 тасига бошқарув сервис компаниялари хизмат кўрсатади. 108 та, яъни 5,2 фоиз уй-жойлар мулкдорлар томонидан умуман бошқарилмайди.

- Вилоятимизда уй-жой мулкдорлари ширкатлари 179 та бўлиб, шундан, молиявий аҳволи оғир бўлган 36 та уй-жой мулкдорлари ширкатлари ўз фаолиятини тугатган, - дейди вилоят уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бошқармаси бошлиғи Баҳодир Негматов. - Уларга қарашли 532 та кўп квартирали уйларни босқичма-босқич янги тузилаётган 15 та бошқарув сервис ташкилотларига бериш кўзда тутилган. Қолгани ўрта ва оғир шароитда ишламоқда. Аниқланишича, тўловлар бўйича тарифларнинг норентабеллиги, ҳисоб-китобларнинг шаффоф эмаслиги, муҳандислик-коммуникация тармоқларининг эскиргани муаммоларга сабаб бўлмоқда. Кўп ширкатлар кадрлар етишмаганлиги сабабли ўз вазифасини бажара олмаяпти. Хонадон эгаларининг ширкат ва бошқарув компанияларига ишончи йўқолган. Мажбурий бадаллар йиғилмаслиги натижасида дебитор қарздорлик ошиб боряпти. Тўловларини ўз вақтида тўламаган мулкдорларга нисбатан таъсир чораларини кўриш тизими йўқ. Мулкдорлар билан ўзаро шартнома тузишда муаммолар пайдо бўляпти.

Бугунги кунда, вилоят бўйича хусусий уй-жой мулкдорлари ширкатларининг тижорат банклари олдида 92,9 миллиард сўм кредит қарздорлиги бор. Шундан 14,7 миллиард сўм муаммоли бўлса, 3,7 миллиарди муддати ўтган кредит ҳисобланади.

- Бу қарздорликлар олинган кредит маблағларини қайтаришга йиғиладиган мажбурий бадал тўловларининг етишмаслиги сабабли юзага келяпти, - дейди вилоят уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш бошқармаси бош мутахассиси Ҳусниддин Шодиев. – Натижада мулкдорлар мажбурий бадал тўловлари миқдорини оширишларига тўғри келмоқда. Бу эса ўз навбатида аҳолининг норозиликларига сабаб бўлаётир. Жумладан, Каттақўрғон шаҳрида 49 та уйга хизмат кўрсатувчи "Қўрғон бино сервис" уй-жой мулкдорлар ширкати томонидан 2 миллиард 549,1 миллион сўм кредит маблағлари олинган. Мазкур ширкатнинг бир ойлик мажбурий бадал режаси 13,2 миллион сўм, бироқ уларнинг бир ойлик харажатлари 42 миллион сўмни ташкил этади. Бу маблағ олинган кредитни ўз вақтида қайтаришга етмаётганлиги сабабли ширкат ўз мажбурятини бажара олмаяпти.

Ана шу муаммоларни бартараф этиш мақсадида Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш ҳудудий бошқармалари ҳузурида кўп квартирали турар жой фондини таъмирлаш жамғармасини ташкил этишга қарор қилинди. Жамғарма маблағларининг 35 фоизи республика бюджетидан, 35 фоизb маҳаллий бюджетдан ва қолган 30 фоизи мулкдорлар тўловидан шакллантирилади. Ҳисоб-китобларнинг шаффофлигини таъминлаш мақсадида бошқарув сервис ташкилотлари ва ширкатларнинг электрон реестрини юритиш, ҳар бир уйга алоҳида шахсий ҳисоб рақам очиш, уйнинг хизмат кўрсатиш ҳудудини аниқ белгилаш, мулкдорларга ҳисобот бериш тартибини такомиллаштириш, ҳисоб-китобларга биллинг тизимини жорий қилиш белгиланган.

Айни вақтда вилоят Ягона ҳисоб-китоб маркази томонидан мажбурий бадаллар тўловларини онлайн амалга ошириш учун ишлаб чиқилган "Обод-уй" дастурига вилоятдаги 169 та хусусий уй-жой мулкдорлари ширкатларига қарашли 53 мингга яқин хонадон эгаларининг маълумотлар базаси тўпланган. Тўловлар барча тижорат банклари томонидан «Мунис» тизими орқали амалга ошириляпти. Дастурда ҳар бир хонадон эгаси учун шахсий ҳисоб рақам очилган. Ширкатлар «Paynet», «Click», «Pay me» компаниялари билан шартнома расмийлаштирилиб ушбу тизимга боғланмоқда.

Жорий йилнинг май ойидан бошлаб Самарқанд шаҳрида тажриба учун Қорасув массивида "Nur sharq tess" МЧЖ бошқарув сервис ташкилоти ташкил этилиб, 47 та кўп қаватли уйга хизмат кўрсатишни бошлади.

- Уйлар фойдаланишга топширилган вақтда уй-жой мулкдорлар ширкати ташкил этилган эди, - дейди "Nur sharq tess" МЧЖ иш юритувчиси Наврўз Эркинов. – Пайдо бўлган муаммоларни ширкат ўз кучи билан ҳал қила олмади. Бундан эса аҳоли норози бўла бошлади. Янги тузилган бошқарув сервис ташкилотида иш бошқача ташкил этилди. Ҳудудга хизмат қилиш учун 8 нафардан боғбон, сантехник ва фаррошлар, 2 нафар лифт хизматчиси, ҳар бешта уйга 1 нафардан қўриқчи ишга олинди. Шунингдек, иккитадан махсус автомашина ва юк ташишга мўлжалланган мотоцикллар, ўт ўрувчи ускуналар сотиб олинди.

- Ўтган йил август ойида янги уйга кўчиб келганмиз, - дейди 80-уйда яшовчи Муҳаррам Бўронова. – Қўшниларнинг эҳтиётсизлиги туфайли уйимизни сув босди. Қайтадан таъмирлаб беришларини сўраб бир неча бор қурувчиларга ва ширкатдагиларга мурожаат қилдим, аммо, фойдаси бўлмади. Янги сервис ташкилотига мурожаат қилгандим, шу бугун хизматчиларни юборишларини айтишди. Таъмирлаш учун қурилиш ашёлари ва жиҳозларни уйимизга олиб боришди.

Янгича бошқарув тизимининг ширкатга нисбатан афзалликлари жуда кўп. Аввало моддий-техник база таъминоти ошади. Аҳоли билан тузилган ўзаро шартнома асосида ўз ҳудудидаги уйларда барча коммунал хизматларни бажаради. Бу ўз ўрнида аҳолининг тўловларга бўлган масъулиятини ошириб, кўрсатилган хизматларнинг сифати ошишига олиб келади. Шунингдек, кўп қаватли уйларни куз-қиш мавсумига тайёрлашда давлат идораларига суяниб қолинмайди. Аҳолининг муаммоларини ҳал этишда вақт тежалади.

**Дилмурод ТЎХТАЕВ.**

# Президент мактабларига қабул қай тартибда ўтказилади?

*(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).*

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада).

### ? – Ҳужжат топширганда қандай ҳолатларда рад этилиши мумкин:

*- Президент мактабларига топширилган ҳужжатлар рад этилади, қачонки талабгор:*

- белгиланган муддатлардан кейин саралаш танловида иштирок этиш хоҳишини билдирган тақдирда;
- ўқув йили натижасига кўра мазкур тартибда кўрсатилган фанларни аъло баҳоларга тугатмаган бўлса;
- таълим олаётган мактабнинг ҳудудий мансублиги Президент мактабининг ҳудудий мансублигига мос келмаганда;
- ҳужжатлар тўлиқ тақдим этилмаганда;
- тақдим этилган ҳужжатларда ёзувлар, муҳрдаги ёзувлар сифатсиз ҳолда нусхаланган бўлса;
- чет эл фуқароси бўлса;
- умумтаълим муассасаларининг тегишли синфларида ўқишни тўлиқ тамомлаган ва Президент мактабида худди шундай синфида такроран ўқиш истагида бўлса.

### ? – Президент мактабларига ҳужжат топшириш учун қандай талаблар мавжуд?

- Президент мактабларига ҳужжатларни топшириш учун номзодларга қўйиладиган талаблар

• **Аъло баҳолар.** Президент мактабларига ҳужжатларни топшириш учун талабгорлар қуйида келтирилган STEAM фанларидан 2020-2021 ўқув йилини аъло баҳоларга тугатган бўлиши шарт.

1. **Математика** (4-, 5-, 6-синф);
2. **Алгебра** (7-, 8-, 9-синф);
3. **Геометрия** (7-, 8-, 9-синф);
4. **Информатика ва ахборот технологиялари** (5-, 6-, 7-, 8-, 9-синф);
5. **Физика** (6-, 7-, 8-, 9-синф);
6. **Кимё** (7-, 8-, 9-синф);
7. **Биология** (табиатшунослик) (4-, 5-, 6-, 7-, 8-, 9-синф).

• **Ҳудудий мансублик.** Талабгор ўқиётган мактаб Президент мактаби жойлашган ҳудудга мансуб бўлиши лозим.

• **Ўқув жараёни.** STEAM математика, физика, кимё, биология ва компьютер таълими инглиз тилида олиб борилади.

• **Мактаб-интернат.** Талабгор Президент мактабига қабул қилинган тақдирда, унинг ота-онаси(қонуний вакиллари) ўқувчининг Президент мактабларида 5 кун давомида интернат шаклида таълим олишига розилик билдириши талаб этилади.

**Саволларга Давлат тест маркази вилоят бўлими бошлиғи Воҳид СИРЛИБОЕВ жавоб берди.**

# "Конституцияга мувофиқми?"

## фуқаролар ва юридик шахслар Конституцион судга шундай шикоят кирита олади

**Жорий йилнинг 27 апрель куни "Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди тўғрисида"ги қонун қабул қилинди.**

Янги таҳрирда эълон қилинган, 101 моддадан иборат қонунда Конституциявий суд ваколатлари, унинг судьясини мақоми, суд ишларини юритиш, мурожаат қилиш ва мурожаатни дастлабки тарзда кўриб чиқиш ҳамда ўрганиш масалалари аниқ белгиланган.

Қонунга кўра, Конституциявий суд доимий фаолият юритувчи суд ҳокимияти органи бўлиб, қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимият ҳужжатларининг Конституцияга мувофиқлиги тўғрисидаги ишларни кўради.

### МУРОЖААТ ҚИЛУВЧИ СУБЪЕКТЛАР КЕНГАЙДИ

Япония, Франция ва Германия каби илғор давлатларда қонун ҳужжатларининг Конституцияга мослигини аниқлаш, Конституция ва қонун нормаларига шарҳ олиш учун Конституциявий судлов органига мурожаат қилиш мумкин.

Бу каби тамойил миллий қонунчилигимизда ҳам аксини топди. Янги таҳрирдаги қонунда фуқаролар ва юридик шахсларга Конституциявий судга мурожаат қилиш ҳуқуқи берилди.

Шунингдек, Инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий марказ, Президент ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил ва Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) ўринбосари – Бола ҳуқуқлари бўйича вакилга ҳам бу ҳуқуқ берилди.

Бир сўз билан айтганда, Конституциявий судга мурожаат қилувчи субъектлар доираси кенгайтирилиб, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва суд-ҳуқуқ соҳасидаги ислоҳотларнинг мантиқий изчиллиги таъминланди.

Мисол учун, фуқаролар ва юридик шахслар қонун уларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликларини бузмоқда деб ҳисобласа ҳамда судда кўрилиши тугалланган муайян ишда қўлланилган бўлса ва судда ҳимоя қилишнинг барча бошқа воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, қонуннинг Конституцияга мувофиқлигини текшириш тўғрисидаги шикоят билан Конституциявий судга мурожаат этишга ҳақли.

### СУДЬЯЛАР МУСТАҚИЛЛИГИ, ДАХЛСИЗЛИГИ КУЧАЙТИРИЛДИ

Янги қонунга кўра Конституциявий суд судьяси биринчи марта сайланганда унинг ваколат муддати беш йилни, навбатдаги сайланганда ўн йилни ташкил этади.

Эндиликда айни бир шахс Конституциявий суд раиси ёки унинг ўринбосари этиб икки муддатдан ортиқ сайланиши мумкин эмас. Юқоридаги тартибга кўра, бир шахс Конституциявий суд судьяси сифатида фаолият олиб бориши мумкин бўлган муддат 15 йилни ташкил этса, ушбу судда узоғи билан 10 йил раис ёки унинг ўринбосари сифатида фаолият олиб бориши мумкин.

Дарвоқе, муддати тугаган судьяни янги ваколат муддатига қайта сайлаш ёки бошқа иш тақдим этиш тўғрисидаги масала ҳал бўлаётган даврда уч ойдан ортиқ бўлмаган муддатда ўртача ойлик иш ҳақи сақлаб қолинади.

Қонун билан Конституциявий суд судьяси Конституциявий суднинг розилигисиз жиноий ёки маъмурий жавобгарликка тортилиши, шунингдек, қамоққа олиниши мумкин эмаслиги белгиланди. Қамоққа олиш тарзидаги эҳтиёт чораси ўта оғир жиноят содир этганлик ёки одамнинг ўлимига сабаб бўлган бошқа қасддан жиноят содир этганлик айби қўйилган ҳоллардагина қўлланилиши мумкин.

Ушбу тартиб Конституциявий суднинг судья сифатида ишлаган даврида шундай жиноятни содир этганликда айбланаётган собиқ судьясига нисбатан ҳам қўлланилади.

### ВАКОЛАТЛАР АНИҚЛАШТИРИЛДИ

Қонун билан Конституциявий суднинг қонунчилик ташаббуси ҳуқуқини амалга оширишнинг ҳуқуқий тартиби аниқ белгиланди. Энди Конституциявий суд ўзи киритган қонун лойиҳасини кўришда ўз вакилини тайинлаши мумкин.

Конституциявий суднинг ҳужжатлари барча давлат органлари, жамоат бирлашмалари, корхоналар, муассасалар, ташкилотлар, мансабдор шахслар ва фуқаролар учун мажбурийлиги қонун устуворлигини таъминлайди.

Ушбу суднинг ҳар бир судьяси якка тартибда сайланади. Конституциявий суд раис ва унинг ўринбосарини қўшган ҳолда тўққиз нафар судьядан иборат бўлади.

Хулоса шуки, янги қонун ҳам юртимизда инсон ҳуқуқлари соҳасидаги саъй-ҳаракатлар янада бир поғона юқори босқичга олиб чиқади.

**Олимжон ҲАЙИТОВ,**
**вилоят суди раиси.**

# GSP+ Европа бозори ва Ўзбекистон ўртасида кўприк вазифасини бажаради

**"Ўзтўқимачиликсаноат" уюшмаси томонидан "Янги Ўзбекистон – янги тўқимачилик" – GSP+ тизимининг Европа Иттифоқига тўқимачилик маҳсулотлари экспортини кенгайтириш ва қўшимча имкониятлар яратишдаги ролига бағишланган семинар ўтказилди.**

Унда Ўзбекистон ва Европа Иттифоқи мамлакатлари экспертлари маркетинг ва экспорт масалалари, истеъмолчилар танлови ва маҳсулотга бўлган талаблар ҳақида тадбиркорларга маълумот берилди.

Европа Комиссиясининг қарори билан 10 апрелда Европа Иттифоқининг барқарор ривожланиш ва яхши бошқарув бўйича имтиёзлар тизими (ГСП +) Ўзбекистон учун кучга кирди.

GSP+ тизими тақдим этилиши учун бенефициар мамлакат инсон ҳуқуқлари, меҳнат ҳуқуқлари, табиатни муҳофаза қилиш ва самарали бошқарувга оид 27 та халқаро конвенцияларни ратификация қилиши зарур эди. Ўзбекистон бу мақомга эришди. Хўш, бу тадбиркорга қандай имконият беради? Семинарда шу ҳақда тажрибали халқаро экспертлар томонидан тадбиркорларга маълумот берилди.




- Ўзбекистон GSP+ преференциясини олди. Унинг талаблари, маркетинги қандай амалга оширилади, сертификатланиши қай тартибда олиб борилади, бунинг барчасини экспорт қилувчи тадбиркор билиши жуда муҳим, - дейди "Ўзтўқимачиликсаноат" уюшмаси бошқарма бошлиғи Муҳаммад Маҳмудов. – Бу бизнинг маҳсулотларимиз Европа бозорига кириб боради дегани. Тадбиркорлар учун бир қатор имконият ва имтиёзлар беради. Шу билан бирга маҳсулотимиз Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган деган мақомни олади. Ривожланган давлатлардаги бренд корхоналар билан ҳамкорлик ҳамда ўзаро тажриба алмашиш имконияти яратилади. Асосийси, аҳоли иш билан таъминланади.

- Халқаро брендлар билан ишлашнинг ўз тартиб-қоидалари бор, - дейди халқаро брендлар билан ишлашда катта тажрибага эга эксперт Митеш Верма. – Биз тадбиркорларга сотишдан тортиб охирги манзилгача бўлган жараёнда уларга яқиндан кўмак берамиз. Тил, брендларнинг жойлашганлиги, қайси брендга қандай сертификатлар лозимлиги ҳақидаги маълумотлар жуда муҳим. Тадбиркор бу муаммолар ечимида бизга бемалол ишониши мумкин.

Семинар давомида тадбиркорларни қизиқтирган саволларга соҳа мутахассислари батафсил жавоб берди.

# "САМАРҚАНД АМАЛИЁТИ":

## Аҳолининг ижтимоий муаммолари маҳалланинг ўзида ҳал этилмоқда

**Бугунги кунда вилоятимиздаги маҳалла фуқаролар йиғинлари ҳузурида тажриба тариқасида жамоатчилик кенгаши фаолияти йўлга қўйилган.**




Янги тузилма маҳаллада ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идораларга кўмаклашиш ва аҳолининг ижтимоий муаммоларини ҳал этишда тегишли ташкилот ва корхоналарга таклиф киритадиган жамоавий уюшма ҳисобланади. Жамоатчилик кенгаши маҳаллада ўз обрўйига ва кўп йиллик меҳнат ва ҳаёт тажрибасига эга, маҳалла аҳолиси ҳурматига сазовор бўлган фуқаролардан иборат таркибда уч йил муддатга сайланади. Ўн беш нафар кенгаш аъзоларининг беш нафарини аёллар ташкил этади.

Самарқанд шаҳридаги Боғимайдон маҳалласи жамоатчилик кенгашининг дастлабки йиғилишида жорий йилнинг 29 март куни маҳалла ҳудудидан ўтувчи Афросиёб кўчасида содир бўлган йўл-транспорт ҳодисаси муҳокама этилди.

– Мазкур нохуш ҳолатга сабабчи бўлган ҳайдовчи Э.Нарзиев кўчани кесиб ўтаётган 11 яшар И.Асроровни "Спарк" русумли автомашинаси билан уриб юборган эди – дейди Боғимайдон маҳалла фуқаролар йиғини раиси, жамоатчилик кенгаши раҳбари Тошпўлат Раҳматуллаев. – Тан жароҳати олган мактаб ўқувчиси шифохонага ётқизилган ва унга зарур тиббий ёрдам кўрсатилган. Ҳайдовчи боланинг саломатлигидан доимий хабардор бўлиб турган, бу оилага етказилган моддий ва маънавий зарарни қоплаган. Ҳолат юзасидан терговга қадар текширув ҳаракатлари олиб борилган. Лекин томонларнинг таклифи билан ишни ҳуқуқ-тартибот органларига юбормасдан маҳалланинг ўзида, жамоатчилик кенгашида муҳокамага қўйдик.

Муҳокама жараёнида Э.Нарзиев эҳтиётсизлик оқибатида қилган қилмишидан пушаймонлиги ва И.Асроров ҳамда унинг оиласига етказилган зарарни қоплаганлигини маълум қилиб, кечирим сўради. Вояга етмаган И.Асроровнинг бобоси А.Ҳалимов эса автоаварияни бахтсиз ҳодиса сифатида баҳолаб, набирасини бахтсиз ҳодиса жойидан Э.Нарзиевнинг ўзи шифохонага олиб борганлигини ва аҳволидан мунтазам хабардор бўлиб турганлигини айтиб, унга нисбатан ҳеч қандай даъвоси йўқлигини маълум қилди.

Жамоатчилик кенгаши аъзолари ҳам автоҳалокат кўп ҳолатларда эҳтиётсизлик оқибатида содир бўлиши, Э.Нарзиев ушбу ҳолатни қасддан содир қилмаганлигини ва у ўз қилмишидан пушаймонлигини ҳамда И.Асроровга етказилган зарарни қоплаганлиги сабабли уни кечириш мақсадга мувофиқлигини таъкидлади.

Шу тариқа жамоатчилик кенгаши томонларнинг бир-бирларига нисбатан эътирозлари йўқлиги ва ўзаро ярашганликларини инобатга олиб, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга мазкур ҳолат юзасидан жиноят иши қўзғатишни рад этиш мақсадга мувофиқлиги тўғрисида таклифи киритишга қарор қилди.



# Самарқанд музейида илк коллекциялар намойиш этилди

**Ўзбекистон маданияти тарихи давлат музейида 18 май – Халқаро музейлар кунига бағишланган "Самарқанд музейи илк коллекцияларининг шаклланиши тарихидан" номли кўргазма бўлиб ўтди.**

Кўргазмада Самарқандда музей ташкил қилинишига сабаб бўлган нумизматика, археология, этнография, ҳужжатлар ва тасвирий санъат буюмлари тўплами илк бор намойиш этилди.

Музей коллекцияси шаклланиши 1874 йилда Афросиёб харобаларида истеъфодаги ҳарбий майор Борзенковнинг археологик қазиш ишлари олиб бориши билан боғлиқ. Борзенков томонидан археологик қазиш ишлари натижасида йиғилган ашёлар алоҳида топшириқлар бўйича амалдор М.Ростиславов раҳбарлигида Зарафшон округи губернатори канцеляриясида тўпланади. 1875 йил ўрталарида Самарқанд музейида қабр тошлари, қадимги ёзувлар, уй-рўзғор буюмлари, 700 дона мис, кумуш, олтин тангалар, 30 та қўлёзмадан иборат ашёлар мавжуд эди.

- 1874 йилда ҳозирги Самарқанд шаҳар ҳокимлиги биносида илк музей ташкил этилган, аммо 1920 йилгача ашёлар ҳисобга олинмаган, - дейди Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси бош муҳофизи Маҳмудхон Юнусов. – Биз бугун кўргазмада шу давргача бўлган илк ашёларни намойиш этишга ҳаракат қилдик. Кўргазмада тарихий суратлар, ҳужжатлар, Клавихонинг 1881 йилда кўчирилган "Темурнинг саройига саёҳат кундалиги", уста Юсуф Мирфаёзов томонидан ясалган Ўрта Осиёдаги ягона глобус ҳам жой олган. Энг ноёб экспонатлардан бири Чилдухтарон мақбарасидан топилган Султон Саид Баҳодир Шайбонийнинг қабр тоши ҳам намойиш этилмоқда. Бу қабр тош XVI асрга тегишли бўлиб, Туркистон генерал губернаторининг алоҳида топшириқлар бўйича амалдори унинг нақшига ҳавас қилиб, сотиб олмоқчи бўлади. Қобул Мастонов деган қоровул буни бермай яшириб қўяди. Яҳудий аёлнинг уйида сақланаётган қабр тоши 1905 йилда музейга топширилади.

Шунингдек, кўргазмадан Афросиёб харобаларидан топилган ашёлар, терракота, мис, кумуш, олтин тангалар, уй-рўзғор буюмлари, хумдонлар, китоб ва кўплаб ноёб экспонатлар жой олган.

**Насиба ЖОНТЎРАЕВА.**

# Имконияти чекланган бўлса-да, шахматни қойилмақом ўйнади

**Самарқанд олимпия захиралари коллежида давлат хавфсизлик хизмати вилоят бошқармаси бошлиғи кубоги учун шахмат мусобақаси ўтказилди.**

Ақл машқида вилоятнинг барча шаҳар ва туманларидан келган 60 нафарга яқин 18 ёшдан 30 ёшгача бўлган имконияти чекланган ўғил-қизлар ўзаро беллашди.



Мусобақанинг тантанали очилиш маросимида давлат хавфсизлик хизмати вилоят бошқармаси бошлиғи А.Аҳмедов, Самарқанд шаҳар ҳокими Б.Облақулов, халқаро гроссмейстер Т.Воҳидов юртимизда шахматни оммалаштириш, бу спорт тури билан шуғулланувчиларни қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор қаратилаётганини таъкидлади. Бугунги кунда минг нафарга яқин самарқандликлар шахмат билан шуғулланиб, республика, Осиё ва жаҳон майдонларида юқори ўринларни эгаллаб келмоқда.

- Мусобақада шогирдларим муносиб иштирок этди, - дейди Самарқанд шаҳридаги 59-кўзи ожизлар махсус мактаб-интернатининг шахмат бўйича мураббийи Зиёда Қўчқорова. – Улар шахмат ўйнаганда ўзларини ногирон деб билмайди, ички сезгиси уларнинг кўзига айланади. Шогирдларим орасида вилоят, республика мусобақаларида ғолиб бўлганлари бор. Шу йилнинг февраль ойида Тошкент шаҳрида ўтказилган халқаро мусобақада шогирдим Райҳона Шарафова олтин медаль билан тақдирланган эди.

Беллашув якунига кўра, Шаҳбоз Қудратов ҳамда Дурдона Жуманова биринчи ўринга сазовор бўлди. Иккинчи ўринни Шеҳроз Даминов ва Райҳона Шарафова эгаллаган бўлса, учинчи ўрин Ҳасан Рашидов ва Ҳабиба Омоновага насиб этди. Ғолибларга диплом ҳамда қимматбаҳо совға берилди. Бошқа иштирокчиларга ҳам ташаккурнома тақдим этилди.

Каттақўрғон шаҳридан келган 23 ёшли Муродулла Ортиқов шахмат доналарини қандай юриш кераклигини онасига айтиб турди ва рақибларига бўш келмай етти турда 4,5 очкога эга бўлди. Ўйинда қатнашгани учун унга ногиронлик аравачаси ҳамда ташаккурнома берилди.

**Ҳусан ЭЛТОЕВ.**

# Шифохонага пресс-тур

**Бир неча кундирки, бутун қавму қариндошлар бемор йигитнинг кўзини очишини илҳақ кутиб ўтиришибди… Гап шундаки, ҳам зиёрат, ҳам саёҳат мақсадида ўртоқлари билан тоққа чиққан бу йигит қайтишда, афсуски, тез тиббий ёрдам машинасида, тўғри шифохонага олиб борилди. Шифокорлар оғир аҳволда келган беморга биринчи ёрдам кўрсата бошладилар.**

Аҳвол жуда оғир, жигар ёрилган, ичаклар узилган, бош мияга шикаст етган, яна бир нечта жароҳатлар… Шошилинч бажарилиши керак бўлган амаллар навбати билан жарроҳлар томонидан ўтказилди. Тоғнинг энг юқори чўққисига чиқиб, илкис, ҳаёти учун хавфли даражада йиқилган йигит ҳамон Самарқанд тумани, тез тиббий ёрдам бўлимининг реанимация хонасида.



Самарқанд туман тиббиёт муассасаларига ўтказилган пресс-тур туман тиббиёт бирлашмасининг энг оғир нуқтасидан бошланди. Вилоят оммавий ахборот воситалари вакиллари туманнинг асосий шифохонасидаги шароитлар билан танишар экан, кўпроқ қайси касалликлар авж олаётгани-ю қайсилари камаяётгани, кимларга кўпроқ шошилинч ёрдам кўрсатилаётгани билан қизиқди.

- Афсуски, айнан баҳор, ёз ойлари тоғдан йиқилиш оқибатида турли жароҳатлар олиш билан боғлиқ ҳолатлар кўп учрайди, - дейди туман тез тиббий ёрдам бўлими шифокори Улуғбек Каримов. - Шунингдек, тоғли ҳудудларимиз кўп бўлгани учунми илон, чаён чақиш ҳолатлари, қолаверса, автоҳалокатлар оқибатида жароҳат олган беморлар ҳам кўп учрайди. Шундай пайтларда битта қалтис ҳаракат, биргина бепарволик инсон тақдирини сонияларда ўзгартириб юбориши мумкинлигидан афсус қилади одам. Гап шундаки, улар орасида бу автоҳалокатдан кейин бир умр ногирон бўлиб қолганлари ҳам бўлади.



Туман тиббиёт бирлашмасида вилоятдаги бор-йўғи учта туманда мавжуд лапороскопия ускунаси мавжуд. Ушбу ускуна орқали мана бир неча йилдирки, йилига юзлаб операциялар амалга оширилмоқда.

- Анъанавий жарроҳликдан кўра, ушбу операция инсонга кам жароҳат етказиши билан самаралидир, - дейди жарроҳ Зафар Ҳодиев. – Шунингдек, турли диагностик амалларни ҳам бажариш имконияти мавжуд. Инсон танасидаги ҳужайраларни 20 маротаба катталаштириб кўрсатиш имконига эга бу асбоб орқали амалга оширилган жарроҳлик амалиётларидан сўнг беморлар қисқа фурсатда соғлом ҳаётга қайтади.

Шунингдек, тез тиббий ёрдам бўлимига ажратилаётган дори-дармонлар миқдори ҳам 90 фоиздан ошгани қувонарлидир.

2021 йилнинг биринчи чораги давомида тез тиббий ёрдам бўлимига 26238 та мурожаат бўлган, 25417 марта тез тиббий ёрдам кўрсатилган.

Шунингдек, пресс-тур давомида журналистлар тумандаги энг йирик, 34-сон оилавий поликлиникаси фаолияти билан ҳам танишди. 11 маҳалла, 47 минг аҳолига хизмат кўрсатувчи ушбу поликлиника бошқа ҳудудлар сингари яқиндагина аҳолини тўлиқ хатловдан ўтказди.

- Хатлов натижаларига кўра, 30 фоиз аҳоли соғлом, саломатлигига эътиборли бўлса, 40 фоизида ортиқча вазн бор, нос, сигарет чекиш, спиртли ичимликлар ичиш каби саломатликка зиён етказувчи зарарли одатларга эгадир, - дейди поликлиника мудираси Ҳусния Маҳмудова. - 27 фоизида эса сурункали хасталиклари аниқланган ёки турли хасталикларни бошидан кечирган бўлса, 3 фоизи имконияти чекланган, соғайишига имкон бўлмаган шахслардир. Эндиликда оилавий шифокорлар ҳар бир гуруҳга мансуб аҳоли билан ишлаб, улар ўртасида тарғибот ишларини амалга оширмоқда. Яхши биласиз, ортиқча вазн бугун кўп учраётган гипертония, юрак-қон томир касалликларини келтириб чиқаради. Афсуски, бу ҳақда гапирсак, «қанча ва қачон таом ейишни ўзимиз биламиз, сизга нима?» дегувчиларнинг кўплиги бизни ташвишга солади.

Дарвоқе, туман аҳолисининг фақат 20 фоизга яқинигина соғлом, зарарли одатларсиз ҳаёт кечирмоқда.

Хатлов давомида аниқланган ҳолатлар бўйича ўрта хавф гуруҳида 37763 нафар аҳолини соғломлаштириш юзасидан республика кўз микрохирургия ихтисослаштирилган илмий-амалий маркази мутахассислари, вилоят кўз касалликлар шифохонаси, вилоят кардиология диспансери ва Самарқанд давлат тиббиёт институтининг акушерлик ва гинекология кафедраси мутахассислари билан биргаликда 4009 нафар аҳоли уйида тиббий кўрикдан ўтказилди, уларнинг 370 нафарига туман шифохонасида, 125 нафарига вилоят муассасаларида ва 1 нафарига республика даволаш муассасаларида даволаниши бўйича тавсия берилди.

**Гулруҳ МЎМИНОВА.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56



# ИЖАРАГА ЖОЙ КЕРАКМИ?

**Бўш турган объектлардан самарали фойдаланишни ташкил этиш марказининг Самарқанд вилояти ҳудудий бошқармаси Самарқанд вилояти бўйича қуйидаги объектлар ижарага берилишини маълум қилади:**

| Т/Р | Балансда сақловчининг номи | Майдони (кв. м.) | Фойдаланиш мақсади | Манзили |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Пахтачи туман ХТБга қарашли 6-умумий ўрта таълим мактаби | 12 | Чакана савдо | Пахтачи тумани Сардоба МФЙ |
| 2 | Пахтачи туман ХТБга қарашли 8-умумий ўрта таълим мактаби | 127,9 | Ўқув муассасаларида умумий овқатланиш | Пахтачи тумани Гўрўғли МФЙ |
| 3 | Пахтачи туман ХТБга қарашли 22-умумий ўрта таълим мактаби | 80 | Ўқув муассасаларида умумий овқатланиш | Пахтачи тумани Амир Темур МФЙ |
| 4 | Булунғур туман ирригация бўлими | 63,8 | Идора мақсадида | Булунғур тумани Оқтепа кўчаси, 69-уй |
| 5 | Пайариқ туман ХТБга қарашли 24-умумий ўрта таълим мактаби | 40 | Ўқув муассасаларида умумий овқатланиш | Пайариқ тумани Мустақиллик МФЙ |
| 6 | Самарқанд давлат чет тиллар институти | 1 | Банкомат ўрнатиш | Самарқанд шаҳри Бўстонсарой кўчаси, 93-уй |
| 7 | Самарқанд давлат чет тиллар институти | 50 | Олий ва ўрта-махсус таълими маълумотли кадрларни тайёрлаш (ўқув курслари) | Булунғур тумани Килдон ҚФЙ |
| 8 | Паст Дарғом туман ХТБга қарашли 34-умумий ўрта таълим мактаби | 15 | Чакана савдо | Паст Дарғом тумани Гумбаз МФЙ |
| 9 | Самарқанд вилояти ички ишлар бошқармаси | 174 | Умумий овқатланиш | Самарқанд шаҳри Чуқур йўл кўчаси, 112-уй |
| 10 | Самарқанд туман ҳокимлиги | 291,8 | Сайёҳлик ва дам олишни ташкил этиш | Самарқанд тумани Ўрта Оҳалик МФЙ |
| | **жами** | **715,6** | | |

**Қўшимча маълумотлар учун қуйидаги манзилга мурожаат этишингиз мумкин:
Самарқанд шаҳри Спитамен шоҳкўчаси, 157-"А" уй. Тел/факс: 66-233-23-52.**

# ТАНЛОВДА ҚАТНАШИНГ!

Самарқанд туман ҳокимлиги ҳузуридаги ер участкаларини бериш (реализация қилиш) масалаларини кўриб чиқувчи комиссияси томонидан туман ҳокимлиги захира ерлари ҳисобига олинган:

"Хўжаликлар аро бўрдоқчилик комплекси" (МХП) массиви ер харитасининг 55, 56, 18, 4қ контурларидан жами 33,8 га. (шундан: 25,0 га. сувли, 7,6 га. яйлов, 0,4 га. ариқ ва зовурлар, 0,3 га. йўллар, 0,5 га. бошқа ерлар) ер майдонларида фермер хўжалиги юритиш учун танлов ўтказилмоқда. Талабгорлардан аризалар 2021 йил 27 майга қадар қабул қилинади.

**Манзилимиз: Самарқанд тумани Гулобод шаҳарчаси, туман ҳокимлиги биноси.**

# ҲАҚИҚИЙ ҲИСОБЛАНМАЙДИ!

«Зарафшон» газетасининг 2021 йил 18 май 58-сони 3-саҳифасида Самарқанд давлат чет тиллар институтидан 2007 йилда Атаев Анвар Ойбекович номига берилган B № 322548 рақамли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилиниши ҳақида эълон чоп этилганди. Диплом ва унинг иловаси топилганлиги сабабли, ушбу эълон ҳақиқий ҳисобланмайди.

# ДАЪВОЛАР БЎЛСА

Самарқанд туманидаги «MAROKAND AGRO INVEST» фермер хўжалиги (СТИР: 303258926) ўз ташкилий-ҳуқуқий шаклини «MAROKAND AGRO INVEST» масъулияти чекланган жамиятига ўзгартиради. «MAROKAND AGRO INVEST» масъулияти чекланган жамияти «MAROKAND AGRO INVEST» фермер хўжалигининг барча ҳуқуқ ва мажбуриятлари бўйича ҳуқуқий вориси ҳисобланади.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча даъволар газетада эълон чоп этилгач, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Самарқанд вилояти Самарқанд тумани, Гулистон маҳалласи.**

* * *

Самарқанд туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Аҳтамов Эркинжон Толибжонович нотариал идорасида марҳум Файзуллаев Жамшид Сайфуллаевичга (2020 йил 14 августда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Аҳтамов Эркинжон Толибжонович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд тумани Андижони маҳалласи.**

* * *

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Тоштемиров Алишер Пўлатович нотариал идорасида марҳум Исламов Касимга (2020 йил 17 сентябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Тоштемиров Алишер Пўлатович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челак шаҳарчаси Обод кўчаси, 35-уй, 3-хона.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Утаназаров Сайитга (2020 йил 22 сентябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Дилсура Хасановна нотариал идорасида марҳум Шодиева Махбуба Эргашевнага (2011 йил 13 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Дилсура Хасановна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Абдураҳмон Жомий кўчаси, 64-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Саидова Зарина Хисравовна нотариал идорасида марҳум Хамидов Абдухалимга (2017 йил 9 октябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Саидова Зарина Хисравовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Абдураҳмон Жомий кўчаси, 64-уй.**

# БЕКОР ҚИЛИНАДИ

Булунғур миллий ҳунармандчилик лицейидан 2000 йилда Омонов Бахтиёр номига берилган КНТ № 169302 рақамли диплом йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Тойлоқ иқтисодиёт ва сервис касб-ҳунар коллежидан 2016 йилда Аззамова Хумора Сайфидин қизи номига берилган рўйхат рақами 16/045, К № 0270288 рақамли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд шаҳридаги 52-умумий ўрта таълим мактабидан 2010 йилда Фарходов Амир Фирдавсович номига берилган U № 4246195 рақамли умумий ўрта таълим тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Паст Дарғом туманидаги 21-умумий ўрта таълим мактабидан 2003 йилда Исматова Моҳичеҳра Зафар қизи номига берилган ТМ-А № 0013026 рақамли 9 йиллик умумий ўрта таълим тўғрисидаги аъло даражали шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Ургут туманидаги 27-ўрта мактабдан 1999 йилда Мирзаева Дилафруз Тўйчиевна номига берилган O'R-A № 154297 рақамли ўрта маълумот тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Пайариқ туманидаги 33-умумий ўрта таълим мактабидан 2004 йилда Қўшоқова Дилдора Норбоевна номига берилган O'R-A № 1752962 рақамли ўрта маълумот тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд туманидаги собиқ 25-ўрта мактаб (ҳозирги Самарқанд шаҳридаги 69-умумий ўрта таълим мактаби)дан 1993 йилда Нумонов Темур Толибович номига берилган АУ № 136225 рақамли ўрта маълумот тўғрисидаги шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

# Ona tili va adabiyotdan teng miqdorda savol qo‘yilsa...



**Yaqinda “Zarafshon” gazetasining 2021-yil 27-apreldagi sonida chop etilgan “O‘qituvchi attestatsiyani qanday “hazm qilyapti?” nomli maqolani o‘qidim. O‘zim yaqinda navbatdan tashqari attestatsiya jarayonida qatnashdim. Attestatsiya imtihoni haqiqatda shaffof o‘tdi. O‘qituvchilar test olinayotgan xonaga tekshiruvdan so‘ng kiritildi. Imtihonda hech kim birovga yordam bermadi.**

O‘zim 1-toifali o‘qituvchiman, navbatdan tashqari imtihon topshirib, oliy toifaga o‘tmoqchi edim. Ammo yetarli ball to‘play olmadim. Oliy toifa uchun imtihonda 75 va undan yuqori ball to‘plash kerak, men 67,5 ball to‘pladim.

Savollar 5-11-sinf darsliklaridan tuzilgan ekan, adabiyot fanidan qiynalmadim. Lekin ona tili fanidan qiyin savollar tushdi. Bitta savolning o‘zida 3-4 tagacha topshiriq berilgan. Fe’ldan juda ko‘p savol tuzilgan. Adabiyotdan ko‘pi bilan 10 ta, bo‘lmasa 7-8 ta savol bor. Qolgani ona tilidan.

Taklifim adabiyotdan ham, ona tilidan ham bir xil 20 tadan savol qo‘yilsa...

Aslida o‘qituvchilarni attestatsiyadan o‘tkazib turish maqsadga muvofiq. Shunda maktab jamoasi oldida uyalib qolmaslik uchun ham ko‘proq o‘qiymiz, o‘z ustimizda ishlaymiz.

**Nasiba FAXRIDDINOVA,**
**Jomboy tumanidagi 48-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.**

# Chelek – shamolli joy

**Qadim o‘tmishning muhim voqealariga guvoh bo‘lgan Payariq tumanidagi Chelaktepadan bugun nom-nishon qolmagan. Salkam 50 yil davomida mahalliy aholi uning tuprog‘ini g‘isht quyish uchun ishlatib yuborgan.**

- Bolalik xotiralarimda qolgani shuki, tepalikning g‘arb tomonida ancha keng so‘qmoq yuqoriga olib chiqardi, - deydi faxriy o‘qituvchi A.Umarov. - Biz, kichkintoylar tepaga chiqishga qo‘rqardik. Uydagilarimiz ham bot-bot tepa yoniga borib o‘ynamaslikni uqtirardi.

Chelak atamasi (toponimi) to‘g‘risida turlicha yondashuvlar mavjud. Mazkur tepalikni chelakda tuproq tashib bunyod qilishgan, deyishadi. Bunda haqiqat bordek tuyuladi, nazarimda. Chunki tepalikning old-g‘arb tomoni ancha chuqur, guyoki tuproqlari tepalik uchun ishlatilgandek taassurot uyg‘otadi kishida. Tepalikdan shimol va janub tarafga bir kilometr uzunlikda cho‘zilgan mudofaa devorlari qoldiqlari hali-hanuz saqlanib turibdi.

Mazkur toponim keyinchalik qipchoq tilida “Jelek”, “Shelek”, “Chilik” tarzida, ba’zan esa o‘zgarmasdan “Chelek” nomi bilan qo‘llanilgan. Aslida “Chelek” atamasi qadimgi turk tilidan bizgacha etib kelgan toponim bo‘lib, “chel”, “jel” - shamol, “ek” – “li”, ya’ni “shamolli”, “shamolli joy” ma’nosini beradi. Darhaqiqat, hudud uzumchilikni rivojlantirishga qulay hisoblangan, G‘o‘bdin va Forish tog‘lari o‘rtasidagi ochiq joy bo‘lib, sharqdan esayotgan shamolga Oylovot (Aliobod) nomi qo‘yilgan.

Ayrim tarixiy manbalarda Chelakni “Vidor” shahri deb yuritishgan va yaqin-yaqinlargacha “Qo‘rg‘on” deb ham atashgan. Chelak – qipchoq urug‘ining bir aymog‘i. Shu sabab, respublikamizning bir qancha aholi punktlari Chelak nomi bilan bog‘liq.

Shuningdek, 2019-yilda nashr etilgan “Payariqnoma” kitobida X-XIV asrlarga oid Ko‘ktepa yodgorligi to‘g‘risida mufassal ma’lumot berilgan. Chelakdan besh chaqirim janubiy-sharqiy tomondagi Shamat va Chandir qishloqlari oralig‘ida 23 gektar maydonni egallagan bu maskan haqida sobiq ittifoq davrida ancha shov-shuv ko‘tarilgandi. Rossiyadan kelgan telejurnalistlar mazkur qal’a-shahar to‘g‘risida, xususan, bu yerdan topilgan Sug‘d malikasining zeb-ziynatlarga ko‘milgan jasadini suratga olib, “Время” informatsion dasturida namoyish etilgandi.

Asarda ko‘pgina toponimlar - Uklan, Oqqo‘rg‘on, To‘polos, Ernazarqo‘rg‘on, Oytamg‘ali, Eshimoqsoq, Ayuvchi, Jangiravot, Abolin, Chimqishloq, Chandir, Devarak, Qoraqalpoq, Damariq qishloqlariga qo‘yilgan nomlarga keng izoh berilgan. Masalan, Cholmo‘yin qishlog‘iga sharh berilganda “bo‘yni yo‘g‘on” chol xususida yozishgan. Yoxud Abolin deb yuritiluvchi qishloq haqida gap ketganda, bu yerda ikki urug‘ga mansub o‘zbeklar yashayotganligi, qishloqning paydo bo‘lishi tarixi xususida keng yoritilgan.

**Oybek GADOYEV,**
**SamDU o‘qituvchisi.**

Бўлган воқеа

# Гўшанга насиб этмаган йигитлар

**Давроннинг ўртоқларига қўшилиб Россияга ишлагани кетганига ҳам етти йил бўлганди. Онаизорнинг “қайтгин болам, сени ҳам уйлантирайлик. Келин қилайлик. Сен тенгилар аллақачон икки-уч болали бўлди. Мениям боғлаб бермаган. Тўйингни кўриб кетсам армоним бўлмасди”, дея зорланганлари таъсир қилдими, охир-оқибат Даврон уйига қайтишга қарор қилди.**

Охирги кунларда ака-укалари ҳам «тезроқ қайт укам, биз тадбиркорлик қиляпмиз. Ер олиб боғ қилдик. Маҳсулотларини ҳозир четга ҳам сотиш учун шартнома қилдик. Келсанг, кўзимизнинг олдимизда бўлсанг шу ерда ҳам бемалол ишлайсан», дея Давронни уйига қайтишини такрор-такрор сўрагандилар.

Даврон яқинларининг бу гап-сўзларидан сўнг четда ишлашга энди ҳожат йўқлигини ўйлаб, уйга қайтишга қарор қилди. Бу хабардан ҳаммадан ҳам Давроннинг онаси хурсанд бўлди. Тезда қиз суриштиришга тушиб кетди. Келин ҳам топилди. Давроннинг розилигини олиб уларни унаштиришди.

Афсуски, тунда Россиядан бўлган бемаврид қўнғироқ Зайнаб онанинг барча умидларини саробга айлантирди: «Ўғлингиз Даврон автоҳалокатга учради». Юрагини чангаллаб йиқилган онанинг фарёдини эшитиб уйга кирган келини уни беҳуш ҳолатда топди. Бир зумда барча яқинлар тўпланишди.

Давроннинг уйига қайтишига узоғи билан бир ой ҳам қолмаганди. Шу куни Даврон кетиш олдидан туғилган кунига чақирган ўртоғини табриклаб, тезгина қайтаман деб чиқиб кетганди. Давронга унинг дўсти Анвар ҳам қўшилди. Тасодифни қарангки, икки дўстнинг ҳам тўйлари икки кун оралиғи билан бўлиши белгиланган эди. Анвар ҳам уйига кетиши учун чиптани олиб қўйган эди. Бир вилоятнинг бир тумани, бир қишлоғидан бўлган бу дўстлар 7 йил ичида ака-укадек бўлиб кетган эди.

Афсуски, икки ўртоқнинг туғилган кундан қайтишларида машиналари йўлдан чиқиб кетиб автоҳалокатга учраганлари ҳақидаги хабар келади...

**Ҳилола ЭРГАШЕВА.**




## Мустақиллик йиллари Самарқандда

**2005 йил, ноябрь**

Самарқанд давлат чет тиллар институтида итальян тили филологияси бўлими очилди.

Вилоятда 149 та қўшма корхона, 11 минг 779 та кичик корхона фаолият кўрсатмоқда. Фермер хўжаликлари билан ҳисоблаганда кичик бизнес тармоғи 23 минг 400 дан ошади.

Вилоятда ялпи ҳудудий маҳсулот ишлаб чиқаришда кичик ва хусусий тадбиркорликнинг улуши жорий йилнинг ўтган даврида 49,2 фоизни ташкил этиб, бу кўрсаткич ўтган йилга нисбатан 3,9 фоизга кўпайди.

Қишлоқ жойларида фермерларга хизмат кўрсатишни яхшилаш мақсадида 22 та мини банк, 14 та минерал ўғит сотиш, 30 та ёқилғи қуйиш шохобчаси, 33 та сувдан фойдаланувчилар уюшмаси, 12 та қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сотиш, 5 та ахборот-консалтинг ва 7 та зооветеринария хизмат кўрсатиш шохобчалари очилди.

**декабрь**

Самарқанд шаҳрида ўтган 11 ойда 170 нафар ногироннинг талаблари қондирилди. 40 минг 466 нафар ногирон, етим болалар тиббий кўрикдан ўтказилиб, касаллик аниқланганлари тегишли шифохоналарда даволанишига имконият яратилди.

Самарқанд шаҳрида етти минг абонентга хизмат кўрсатувчи 29-АТС замонавий рақамли станция ишга туширилди.

20 декабрь куни халқ депутатлари вилоят Кенгашининг V сессияси ўтказилди.
Сессияда республика Бош вазири Ш.Мирзиёев сўзга чиқди ва ислоҳотлар жараёнида юзага келаётган муаммолар ҳамда уларнинг ечимига тўхталди.

20 декабрь куни халқ депутатлари вилоят Кенгашининг қарорига кўра, Аъзамхон Баҳромов вилоят ҳокимининг саноат, тадбиркорлик, капитал қурилиш, коммуникациялар ва коммунал хўжалиги масалалари бўйича биринчи ўринбосари этиб тасдиқланди.

Ёнимиздаги одамлар

# Испанзанинг фахри

**Ҳар бир қишлоқ, маҳалланинг кайвони, элни ўз ортидан эргаштира оладиган кишилари, оқсоқоллари бўлади. Ўша ҳудуд ҳақида гап кетса, аввало, шундай кишилар сўроқланади, тўй-маъракалар ёки кўпнинг манфаатига хизмат қиладиган ишлар улар билан бамаслаҳат бошланади.**



Ургутнинг Испанза қишлоғида Фазли ота ана шундай – элнинг олдидаги, гапи етар инсонлардан бўлган. Бирор жойга бориб Ургутдан, Испанзаданман, десангиз “Фазли отанинг юртиданми?” деб сўрашган, бу қишлоққа келган меҳмонлар, раҳбарлар ҳам албатта, отахонни йўқлаган.

Гарчи бугун Фазли Саидов ҳаёт бўлмаса-да (2003 йилда, 76 ёшида вафот этган) у кишининг номи, умри давомида амалга оширган хайрли ишлари одамлар ёдидан кўтарилмаган ва бу ишларни айни чоғда фарзанду набиралари давом эттирмоқда.

Фахриддин Фазлиев ана шу инсоннинг олти фарзандидан бири, тўрт ўғилнинг тўнғичи. Унинг ўзи ҳам бугун катта оиланинг “каттаси” – олти фарзанднинг отаси, бир неча невара-эвараларнинг пиру бадавлат бобоси. Энди бугун Испанза ҳақида эшитган киши “Фазлиевларнинг қишлоғими?”, деб сўрайди ёки Фахриддин ака тўғрисида ўз билганларини айтади. Лекин бу сулолани, Фахриддин акани билмаганлар кам топилса керак. Сабаби, Фазли ота ҳам, у кишидан кейин Фахриддин ака ва бошқа укалари, фарзанду набиралари ҳам эл ичида халқ ишига камарбаста бўлиб меҳнат қилишган, ҳамон шу эзгу мақсад билан яшайдилар.

Фахриддин ака мактабни битириб, бирор касб-ҳунарнинг бошини тутиш керак бўлганда, ота изидан бориб ҳисобчиликни танлаган ва Испанзада жамоа хўжалигида ишлаган. Ғайрат-шижоати жўшиб турган йигит тез орада туман раҳбарлари эътиборига тушиб, ёшлар ташкилотига ишга ўтказилди. Бир муддат ўтиб, 30 ёшида Ургут шаҳар молия бўлими мудирлигига тайинланди. Кейин яна бир қатор масъул вазифаларда ишлади. Ургут тумани ҳокимининг биринчи ўринбосари, “Ўзагросуғурта” давлат акциядорлик суғурта компанияси Самарқанд вилояти дирекцияси директори бўлди.

Қаерда, қайси вазифада бўлмасин, номигагина ишламади, ўзидан из қолдиришга, одамларнинг мушкулини осон қилишга интилди. Зиммасига юклатилган вазифани чин дилдан бажарди. Бу билан раҳбарлар ишончини оқлади, халқ ўртасида ҳурмат-эътибор қозонди.

– Вилоят раҳбари сифатида кадрга оид биринчи қарорим Фахриддин Фазлиевни Ургут тумани ҳокимининг биринчи ўринбосари вазифасига тайинлаш бўлган, – дейди Ўзбекистонда хизмат кўрсатган юрист, меҳнат фахрийси Алишер Мардиев. – Ўша пайтда ҳокимликда кадрлар масаласига мутасадди бўлган Холмуҳаммад Нуруллаев қабулимга олиб кирганди (кейинчалик улар иккови Ургутда бирга ишлашди). Илк суҳбатимизданоқ ғайратли, ўз ишини яхши биладиган, ташаббускор инсон сифатида яхши таассурот қолдирган. Кейинчалик Фахриддин ака бирга ишлаган ҳамкасб, оқибатли дўст сифатида яқин бўлдик, бир-биримиздан ҳол-аҳвол сўраб турамиз, бир-биримизни йўқлаймиз.

Ф.Фазлиев 2003 йилдан 2011 йилгача, яъни пенсияга чиққунига қадар вилоят меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бош бошқармаси бошлиғи бўлиб ишлаганида тизимда кўп янгиликларга қўл урди. Кўпинча кишиларда иши фақат рақамларда акс этадигандек тасаввур уйғотадиган бошқарманинг амалий ишларини кўрсатиб бера олди.

– Фахриддин ака билан ишлаб, бу инсоннинг талабчан раҳбарлигига гувоҳ бўлганман, – дейди айни пайтда вилоят ҳокимлиги ташкилий назорат гуруҳи раҳбари Беҳзод Раҳматуллаев. – Ҳар бир вазифани бекаму кўст бажаришга интилар, биздан ҳам шуни талаб қиларди. Қисқа вақт ишлаган бўлсам ҳам у кишидан кўп нарса ўрганганман ва бугун ўша тажрибаларни ўз фаолиятимда қўллаб кам бўлганим йўқ.

Одатда, кўпчилик пенсияга чиққанидан кейин ташвиши бироз камроқ вазифаларда ишлашни, чеккароқда юришни ёки ўз қишлоғи, маҳалласида яшаб, кексалик гаштини суришни истаб қолади. Бу жиҳатдан ҳам Фахриддин ака бошқаларга ўхшамайди. Пенсияга чиқиб, Ургутга эмас, пойтахтга йўл олди, оёқ узатиб ўтиришни ўзига эп кўрмади. Аниқроғи, меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги раҳбарияти у кишининг тажрибаларидан фойдаланиш мақсадида масъул вазифаларга тайинлади. Бу ерда ҳам ишончни оқлаб, ёшларга устозлик қилди, тизим ривожига ҳисса қўшди. Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан “Ургут” эркин иқтисодий зонаси ташкил этилгач, туманда “Ўзстандарт” агентлиги “Самарқанд синов ва сертификатлаштириш маркази” давлат корхонаси Ургут филиалини очишга бош бўлди, бир муддат унга раҳбарлик ҳам қилди.

Айни пайтда эса Фахриддин ака Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши ҳузуридаги “Қишлоқ бизнеси учун маслаҳат хизмати” унитар корхонаси раҳбари.

Сўзимиз аввалида қайд этганимиздек, бугун қутлуғ етмиш ёшни қаршилаётган Фахриддин Фазлиев катта оиланинг сарбони. Ўзи ҳам, фарзанду набиралари ҳам мамлакатимиз равнақи йўлида бошқаларга ибрат бўлиб фаолият кўрсатмоқда. Улар Испанзада ҳам, Ургут ёки Самарқандда, пойтахтда ҳам Фазлиевлар сулоласининг муносиб давомчилари сифатида меҳнат қилмоқда.

Ҳаммага ҳам ўз юртининг фахру ғурури бўлиб, элга хизмат қилиш ва обрў топиш бахти насиб этсин!

**Ғолиб ҲАСАНОВ.**

**Бепоён Қизилқум кенгликларининг яқин атрофларидан какликлар тўдаси ҳар тонг сувлаш учун чўл чеккасидаги қудуққа келади. Бугун ҳам эрта тонг каклик тўдаси чанқоғини қондириш мақсадида таниш қудуққа яқинлашди...**

# Каклик ови



... Пистирмада айни вазиятни кутиб ётган овчилар тўсатдан уларга қарата бараварига ўқ уза бошлади. Ожиз паррандалар тутдек тўкилди. Йирик бир каклик оёғи ва қанотидан яраланган эди. Уни тутиб олишди.

Қудуқ эгаси овчиларга “Энди зада бўлган бу қушлар икки-уч кун қудуқ томон йўламайди. Чўлнинг ичкарисига кириб, овлаб турарсизлар, кейин бир иложини қиламиз”, деб маслаҳат берди.

Орадан икки кун ўтди. Овчилар чўпоннинг маслаҳати билан ярадор какликнинг соғ оёғидан ип ўтказиб, қудуқ ёнида қозиққа боғлаб қўйишди. Ўзлари тун ярмида пистирмага жойлашди.

Ғира-шира тонг пайтида олисдан каклик сайроғи эшитилди. Бу томондан ярадор каклик баланд товушда сайраб жавоб қайтарди. Яширинган овчилардан бехабар ҳаракатланаётган қушлар тўдаси кўзга ташланди. Шу пайт қудуқ ёнидаги каклик иккинчи бор шундай сайрадики, бу товуш фалокат яқинлигидан хабар берувчи фиғон эди. Қудуққа яқин келиб қолган тўда шартта тўхтаб ортига бурилди ва кўздан ғойиб бўлди. Бу ҳолат шундай тез содир бўлдики, овчилар ўқ узишга ҳам улгуролмай қолишди.

Фидокорлик, ўз яқинларини ҳимоя қила билишда одамлар қушлардан ўрнак олса, не ажаб.

**Ўта МУҲАММАД.**




# Нуробод Цхалтубоси иш бошлади

**Нуробод шаҳарчасида радонли сув билан даволашга ихтисослашган “Nurli-zamin ESM” сиҳатгоҳи иш бошлади.**

- Мазкур маскан 100 ўринли бўлиб, маҳаллий ёшларнинг 25 нафари доимий иш билан таъминланган, - дейди сиҳатгоҳ раҳбари Ш.Қаршиев. – Радонли сув ошқозон ва ичакларни ювишда, ванна қабул қилишда қўлланилмоқда. Физиотерапия, қадимий тиббий даволаш усуллари, тошли иссиқ йўлакча, бадантарбия каби даво муолажалари даволанувчиларга манзур.

Сиҳатгоҳ бош шифокори М.Норқуловнинг айтишича, бу ерда урологик ва гинекологик шамоллашларга, фарзандсизлик, бўйин ва бел чўзиш, умуртқа чурраси каби касалликлар ҳам даволанади.

**Т.НОРҚУЛОВ.**

**Суратда:** *жамоа аҳли сиҳатгоҳ олдида.*

*Хизматлар лицензияланган.*

## ШУ ОЙДА ТАВАЛЛУД ТОПГАНЛАР

**25 МАЙ**
**Абдурашид ЖАББОРОВ** – 1950 йилда Самарқанд шаҳрида туғилган. Биология фанлари доктори, профессор.

**30 МАЙ**
**Исроил ЖУМАНОВ** – 1943 йилда Ғаллаорол туманида туғилган. Техника фанлари доктори.

Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: «Zarafshon» va «Самаркандский вестник» gazetalari tahririyati mas’uliyati cheklangan jamiyati

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr 100. Indeks 438.
17 273 nusxada chop etildi. Buyurtma 362

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.



Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.
«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.
Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Sotuvda narxi kelishilgan holda

ISSN-201667X
9 772010 667009